



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No7
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 48 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

METHODS USED IN BUSINESS DECISION-MAKING	10
Ochildiev Bekhruz To'liqin o'g'li, Safarov Alisher	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING AMALIY TAHLILI O'ZBEKISTON MIQYOSIDA VA UNING XUFYONA JIHATI	15
Yuldasheva Nargiza Rashidovna, Koshanov Abdimurat Azat uli	
BIZNESDA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA KASBIY KOMMUNIKATSIYALAR	20
Gulmurodova Marjona Olimjon qizi, Normamatova Sitora Nozim qizi, Umida Yuldasheva Anasaliyevna	
ИНТЕГРАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЙ МОДЕЛИРОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИЕ ПО БУХГАЛТЕРСКОМУ УЧЁТУ: ПОВЫШЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	25
Муратова Наргиза Тахировна	
MIGRATSIYA JARAYONLARI VA IQTISODIY TENGSIZLIK O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR XUSUSIYATLARI	30
E.T. Samadova, M.Sh.Raximova	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA MENEJMENTNING YANGI YONDASHUVLARI	36
Shoydulova Maftuna Zafar qizi, Meliyeva Nargiza Eshboyevna	
TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR	43
Nosirov Sabohiddin, Abdullayeva Mohiniso, Hafizullayev Javlon, Kasimova Zilola G'ulomiddinovna	
MEHNAT MIGRATSIYASI VA PUL O'TKAZMALARINING IQTISODIYOTGA TA'SIRI	48
Chintemirova Diyora Shuxrat qizi, Akbarova Barno Shuxratovna	



MEHNAT MIGRATSIYASI VA PUL O'TKAZMALARINING IQTISODIYOTGA TA'SIRI

Chintemirova Diyora Shuxrat qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

3-bosqich talabasi

E-mail: dchintemirova@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Akbarova Barno Shuxratovna

TDIU Iqtisodiy statistika kafedrasi dotsenti, Phd

E-mail: b.akbarova@tsue.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida mehnat migratsiyasi va pul o'tkazmalarining iqtisodiyotga ta'siri empirik tahlil asosida o'rganilgan. Tadqiqotda 2018–2024-yillardagi statistik ma'lumotlar asosida pul o'tkazmalari (remittances) hajmi hamda ularning iste'mol bozori, kambag'allik darajasi, ishsizlik va valyuta tushumlariga ta'siri tahlil qilingan. Empirik natijalarga ko'ra, migrantlar tomonidan yuborilgan pul o'tkazmalari qisqa muddatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda ijobiy rol o'ynagani aniqlangan, biroq uzoq muddatda mehnat resurslarining qisqarishi, "miya oqimi"ning kuchayishi va tashqi iqtisodiy qaramlik xavflari yuzaga kelgani qayd etilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba va qiyosiy tahlil asosida O'zbekistonda pul o'tkazmalarini samarali investitsiyalarga yo'naltirish, moliyaviy xizmatlarni kengaytirish hamda ijtimoiy himoyani kuchaytirish orqali iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mehnat migratsiyasi, pul o'tkazmalari, iqtisodiy ta'sir, O'zbekiston, YAIM, aholi daromadi, kambag'allik, valyuta tushumi, ishsizlik, makroiqtisodiy barqarorlik, xalqaro tajriba, tashqi qaramlik, miya oqimi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish.

Abstract: This article examines the impact of labor migration and remittances on the economy of the Republic of Uzbekistan through empirical analysis. Based on statistical data for the period 2018–2024, the study analyzes the volume of remittances and their effects on the consumer market, poverty level, unemployment, and foreign currency inflows. The empirical results reveal that remittances sent by migrants played a positive role in ensuring macroeconomic stability in the short term, however in the long term, the reduction of labor resources, the intensification of "brain drain" and increasing external economic dependence have posed significant risks. Furthermore, drawing on international experience and comparative analysis, the study develops practical recommendations aimed at channeling remittances into effective investments, expanding financial services, and strengthening social protection mechanisms to enhance Uzbekistan's economic resilience.

Key words: labor migration, remittances, economic impact, Uzbekistan, GDP, household income, poverty, foreign exchange inflows, unemployment, macroeconomic stability, international experience, external dependence, brain drain, socio-economic development.

Аннотация: В данной статье исследовано влияние трудовой миграции и денежных переводов на экономику Республики Узбекистан на основе эмпирического анализа. В исследовании, охватывающем статистические данные за 2018–2024 годы, проанализированы объем денежных переводов (remittances), их воздействие на потребительский рынок, уровень бедности, безработицу и валютные поступления. Эмпирические результаты показали, что в краткосрочной перспективе денежные переводы мигрантов сыграли положительную роль в обеспечении макроэкономической стабильности, однако в долгосрочной перспективе сокращение трудовых ресурсов, усиление «утечки мозгов» и рост внешнеэкономической зависимости создают серьезные риски. Кроме того, на основе международного опыта и сравнительного анализа разработаны практические предложения по направлению денежных переводов в эффективные инвестиции, расширению спектра финансовых услуг и усилению механизмов социальной защиты для укрепления экономической устойчивости Узбекистана.

Ключевые слова: трудовая миграция, денежные переводы, экономическое воздействие, Узбекистан, ВВП, доходы населения, бедность, валютные поступления, безработица, макроэкономическая стабильность, международный опыт, внешняя зависимость, «утечка мозгов», социально-экономическое развитие.



KIRISH

Mehnat migratsiyasi va pul o'tkazmalari bugungi globallashuv sharoitida jahon iqtisodiyotining ajralmas tarkibiy qismi sifatida katta ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xorijda faoliyat yuritayotgan fuqarolarning yuborayotgan mablag'lari nafaqat uy xo'jaliklari daromadlarining muhim manbai, balki makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biri bo'lib xizmat qilmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda migrantlar tomonidan global miqyosda yuborilgan pul o'tkazmalari hajmi 860 milliard AQSh dollaridan ortiqni tashkil etgan. Rivojlanayotgan davlatlar kesimida pul o'tkazmalarining yalpi ichki mahsulot (YAIM)ga nisbatan ulushi yuqoriligi kuzatilgan. Masalan, Tojikiston, Qirg'iziston, Tonga va Livan kabi davlatlarda pul o'tkazmalari yalpi ichki mahsulotning 30–50 foizgacha yetgani qayd etilgan[3]. Ushbu mablag'lar bir tomondan iste'molni kengaytirsam, ikkinchi tomondan investitsiya va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish orqali iqtisodiy o'sishga kuchli turtki bermoqda.

O'zbekiston ham mehnat migratsiyasi va pul o'tkazmalarining iqtisodiyotga ta'sirini sezilarli darajada boshdan kechirayotgan davlatlar qatoriga kiradi. Ma'lumki, respublikamiz aholisi tarkibida mehnatga layoqatli yoshlarning ulushi yuqori bo'lib, iqtisodiyotda bandlik masalasi doimiy dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, xorijiy mamlakatlarda mehnat faoliyati bilan shug'ullanayotgan fuqarolar sonining ortishi va ular tomonidan yuborilayotgan pul mablag'lari milliy iqtisodiyotning turli jabhalarida sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, 2024-yilda O'zbekiston fuqarolari tomonidan yuborilgan pul o'tkazmalari hajmi 16,6 milliard AQSh dollaridan oshib[4], mamlakat to'lov balansining ijobiy shakllanishida muhim omil bo'lgan. Ushbu mablag'lar milliy valyuta barqarorligini ta'minlash, importni moliyalashtirish va ichki iste'mol bozorini qo'llab-quvvatlashda alohida ahamiyat kasb etgan.

O'zbekiston Hukumati so'nggi yillarda mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish hamda xorijdagi fuqarolarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha qator tashabbuslarni amalga oshirmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyuldagi "Mehnat migratsiyasi masalalarini tartibga solish va ushbu sohada davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–3839-son qarori asosida Migratsiya agentligi tashkil etilgan va xorijda mehnat qilayotgan fuqarolarga nisbatan tizimli yondashuv joriy etilgan¹. Shuningdek, davlat tomonidan mehnat migratsiyasining iqtisodiy ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022-yil 27-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Mamlakatimiz iqtisodiy siyosatida xorijdagi fuqarolarni faqat vaqtinchalik daromad topuvchi kuch sifatida emas, balki barqaror investitsiya manbai sifatida ko'rish zarur", deb alohida ta'kidlangan².

Shu bilan birga, mehnat migratsiyasining murakkab iqtisodiy va ijtimoiy jihatlar mavjud bo'lib, ular milliy mehnat bozorining tarkibiy o'zgarishlarini shakllantiradi. Xususan, mehnat resurslarining xorijiy bozorga chiqishi ichki iqtisodiyotda malakali ishchi kuchiga bo'lgan talabni oshirib, yangi kasbiy tayyorlov tizimlarini rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Yuqori malakali mutaxassislarining chet elda tajriba oltirishi esa, kelgusida ularning qaytishi orqali "revers miya oqimi"ni shakllantirish imkonini beradi. Oilalarning vaqtincha ajralib yashashi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dasturlarini yanada kuchaytirish ehtiyojini ko'rsatmoqda, bu esa davlatning ijtimoiy siyosatini takomillashtirish uchun yangi yo'nalishlarni belgilaydi.

Shu sababli, pul o'tkazmalarini faqat iste'molni rag'batlantiruvchi vosita emas, balki investitsiyalarni moliyalashtirishga xizmat qiluvchi barqaror iqtisodiy resurs sifatida boshqarish muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. Ushbu yondashuv nafaqat iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi, balki moliyaviy barqarorlik, tadbirkorlik muhiti va innovatsion faollikni ham kengaytiradi.

Yuqorida qayd etilgan jihatlar mehnat migratsiyasi va pul o'tkazmalarining O'zbekiston uchun murakkab, ammo istiqbolli iqtisodiy-ijtimoiy jarayon ekanini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – migratsiya va pul o'tkazmalarining iqtisodiyotga ta'sirini statistik tahlil asosida baholash, ilg'or xalqaro tajribani o'rganish hamda O'zbekiston sharoitida bu jarayonlarni yanada samarali boshqarishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro tadqiqotlarda mehnat migratsiyasi va pul o'tkazmalari masalasi keng o'rganilgan. Amerikalik iqtisodchi R. Adams o'z maqolasida remitanlarning qisqa muddatda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi, biroq uzoq muddatda tashqi iqtisodiy qaramlikni kuchaytirishi mumkinligini ta'kidlagan [5]. Yangi Zelandiya va Jahon banki tadqiqotchilari – A. Bollard, D. McKenzie, M. Morten hamda H. Rapoport o'z maqolalarida yuqori malakali migrantlarning ko'proq pul o'tkazmalari amalga oshirishi haqidagi empirik dalillarni keltirishgan [6].

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyuldagi "Mehnat migratsiyasi masalalarini tartibga solish va ushbu sohada davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–3839-son qarori. <https://lex.uz/docs/-3811317>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 27.12.2022 yildagi SQ-669-IV-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6371092>



Xalqaro migratsiya tashkiloti (IOM) o'zining muntazam ravishda chop etiladigan hisobotlarida remitanzlarni rivojlanayotgan mamlakatlarda ijtimoiy farovonlikni qo'llab-quvvatlovchi asosiy moliyaviy oqim sifatida baholagan [7]. Fransuz iqtisodchilari H. Rapoport va F. Docquier o'z monografiyalarida remitanzlarning "miya oqimi" jarayoni bilan chambarchas bog'liqligini ilmiy asoslab berganlar [8].

O'zbekiston olimlari ham ushbu masalani turli jihatlarida tadqiq etishgan. Iqtisodchi olim A. Vohidov o'z maqolasida mehnat migratsiyasini qisqa muddatda farovonlikni oshiruvchi, biroq uzoq muddatda tashqi qaramlikni kuchaytiruvchi omil sifatida talqin qilgan [9]. B. Qodirov o'zining ilmiy maqolasida remitanzlarning kambag'allikni kamaytirishdagi rolini asoslab, ularni aholi daromadlarini oshiruvchi asosiy instrument sifatida baholagan [10]. D. Ergashev o'z tadqiqotida remitanzlarning valyuta zaxiralari va makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rnini chuqur tahlil qilgan [11]. S. Mavlanova esa o'z maqolasida pul o'tkazmalari O'zbekiston YAIMining 10–12 foizini tashkil etishini ta'kidlab, ularni milliy iqtisodiyot uchun muhim moliyaviy manba sifatida e'tirof etgan [12].


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda mehnat migratsiyasi va pul o'tkazmalarining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri 2018–2024-yillar statistik ma'lumotlari asosida o'rganilgan. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Jahon banki, Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO) hamda Xalqaro migratsiya tashkiloti (IOM) bazalaridan olinib, ular asosida ilmiy tahlillar amalga oshirilgan. Tahlil jarayonida ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan kuzatish, umumlashtirish, guruhlash va taqqoslash usullaridan foydalanilgan. Empirik ma'lumotlarni qayta ishlashda statistik, grafik va sintez usullari qo'llanilib, dinamik tendensiyalar hamda o'zaro bog'liqliklar aniqlangan.

Shuningdek, oddiy eng kichik kvadratlar (OLS) usuli asosida ko'p omilli regressiya modeli tuzilgan. YAIM o'sishi bog'liq o'zgaruvchi sifatida tanlanib, mustaqil omillar sifatida pul o'tkazmalari hajmi, inflyatsiya va ishsizlik darajalari kiritilgan. Natijada shakllangan model pul o'tkazmalarining iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasini miqdoriy baholash, shuningdek, ularning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sirini aniqlash imkonini bergan.

Tahlil va natijalar

O'zbekistonga kelib tushgan pul o'tkazmalarining 2018–2024-yillardagi dinamikasi statistik ma'lumotlar asosida o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, migrantlar yuborgan moliyaviy resurslar hajmi yildan-yilga o'zgarib borgan, ularning YAIMdagi ulushi va aholi jon boshiga hisoblangan ko'rsatkichlari esa barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etgan (1-rasm).



1-rasm. O'zbekistonga kelib tushgan pul o'tkazmalari dinamikasi³

Xususan, pul o'tkazmalari 2018-yilda 7,6 milliard AQSh dollaridan 2024-yilda 16,6 milliard dollargacha ko'tarilib, qariyb ikki baravar oshgan. 2020-yilda pandemiya sababli qisqa muddatli pasayish kuzatilgan

3 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Davlat statistika qo'mitasi hamda Jahon banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



bo'lsa-da, 2021-yildan boshlab tezkor tiklanish jarayoni boshlangan va 2022-yilda 15,5 milliard dollarga yetib, davr mobaynidagi eng yuqori darajalarni qayd etgan. Keyingi yillarda biroz pasayish kuzatilgan bo'lsa-da, umumiy yo'nalish ijobiylikiga qolmoqda.

YAIMga nisbatan ulush ko'rsatkichlari iqtisodiy qaramlik darajasini baholash imkonini beradi. 2018-yilda pul o'tkazmalari ulushi 14,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020-yilda 10,7 foizgacha kamaygan. Biroq pandemiya davrida keyingi tiklanish davrida bu ko'rsatkich keskin oshib, 2022-yilda 19,1 foizni tashkil etgan. Keyingi yillarda esa 14–16 foiz oralig'ida barqarorlashgan. Bu holat pul o'tkazmalarining tashqi moliyaviy manba sifatidagi muhim rolini tasdiqlaydi.

Pul o'tkazmalarining aholi jon boshiga hisoblangan miqdori ham ijobiy dinamikani namoyish etgan. 2018-yilda bu ko'rsatkich 232 dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilda 443 dollargacha ko'tarilgan. 2023-yilda 394 dollargacha pasaygan bo'lsa-da, 2024-yilda 451 dollargacha yetib, rekord darajani qayd etgan. Bu esa uy xo'jaliklari daromadlarining ortishini va iste'mol imkoniyatlarining kengayganini ifodalaydi (1-rasm).

1-jadval. Mehnat migratsiyasi va iqtisodiy-ijtimoiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik⁴

Yil	Migrantlar soni (mln)	Pul o'tkazmalari (mlrd. \$)	Kambag'allik darajasi (%)	Ishsizlik (%)	YalM o'sishi (%)	Valyuta zaxiralari (mlrd. \$)	Inflyatsiya (%)
2018	2,9	7,6	11,4	5,4	5,6	27	14,3
2019	2,5	8,5	11	4,9	6,8	29,3	15,2
2020	1,2	7,1	10,5	5,3	1,6	34,9	11,1
2021	1,7	9,3	17	5,4	8	35,4	10
2022	2,3	15,5	14	4,5	6	35,8	12,3
2023	2	14,2	11	4,5	6,3	34,6	8,8
2024	1,9	16,6	8,9	4,5	6,5	41,2	9,8

Yuqoridagi 2-jadval natijalaridan ko'rinib turibdiki, 2018–2024-yillarda O'zbekistonda mehnat migratsiyasi oqimlari va unga bog'liq iqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi sezilarli bo'lgan. Migrantlar soni 2018–2019-yillarda nisbatan barqaror o'sish ko'rsatgan bo'lsa, 2020-yilda pandemiya oqibatida 1,2 million kishigacha keskin kamaygan. Keyinchalik bu ko'rsatkich qisman tiklanib, 2022-yilda 2,3 millionga yetgan, ammo 2024-yilda 1,9 million atrofida shakllanib, avvalgi yuqori darajalarni qayd etmagan. Ushbu o'zgarishlar pul o'tkazmalari hajmiga ham bevosita ta'sir ko'rsatib, ularning umumiy hajmi 2018-yildagi 7,6 milliard dollardan 2024-yilda 16,6 milliard dollargacha oshgan. Muhim jihati shundaki, migrantlar soni qisqargan yillarda ham pul o'tkazmalari hajmi ortishda davom etgan. Bu esa har bir migrant tomonidan yuborilayotgan mablag' miqdorining oshgani bilan izohlanadi.

Pul o'tkazmalarining o'sishi aholining ijtimoiy farovonligiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Kambag'allik darajasi pandemiya davrida 17 foizgacha oshgan bo'lsa-da, keyingi yillarda pasayib, 2024-yilda 8,9 foizgacha tushgan. Ishsizlik darajasi butun davr davomida 4,5–5,4 foiz oralig'ida saqlanib, mehnat migratsiyasi ichki mehnat bozoridagi bosimni yumshatgan. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar ham o'zgaruvchan bo'lgan: YAIM pandemiya yili 1,6 foizgacha pasaygan, biroq 2021-yilda 8 foizgacha tiklanib, keyinchalik 6–6,5 foiz oralig'ida barqarorlashgan. Xalqaro valyuta rezervlari 2018-yildagi 27 milliard dollardan 2024-yilda 41,2 milliard dollargacha oshib, tashqi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlagan. Inflyatsiya 2018–2019-yillarda 14–15 foiz darajasida bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda 8,8 foizgacha pasaygan va 2024-yilda 9,8 foizni tashkil etgan.

Umuman olganda, pul o'tkazmalar qisqa muddatda iqtisodiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlab, kambag'allikni kamaytirgan va aholi daromadlarini oshirgan. 2018–2024-yillar ma'lumotlari asosida O'zbekiston iqtisodiyotida mehnat migratsiyasi va pul o'tkazmalarining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri o'rganilgan. YAIM o'sishi (%) bog'liq o'zgaruvchi sifatida tanlanib, mustaqil omillar sifatida pul o'tkazmalari hajmi (milliard AQSh dollari), inflyatsiya (%) va ishsizlik (%) kiritilgan. Oddiy eng kichik kvadratlar (OLS) usuli yordamida shakllantirilgan ko'p omilli regressiya modeli quyidagi ko'rinishda ifodalangan[13]:

$$GDP_growth = \beta_0 + \beta_1 Remit + \beta_2 Inflation + \beta_3 Unemployment + \varepsilon$$

4 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Davlat statistika qo'mitasi, Jahon banki, ILO va IOM ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



bunda:

$$\beta_0 = -21.197$$

$$\beta_1 = 0.599 \text{ (pul o'tkazmalari hajmi, mlrd. AQSh dollari)}$$

$$\beta_2 = 0.297 \text{ (inflyatsiya darajasi, \%)}$$

$$\beta_3 = 3.413 \text{ (ishsizlik darajasi, \%)}$$

Natijalarga ko'ra, pul o'tkazmalari koeffitsiyenti 0,599 bo'lib, YAIM o'sishi bilan ijobiy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi. Ya'ni, pul o'tkazmalari hajmining 1 milliard dollarga ortishi YAIM o'sishini o'rtacha 0,6 foizga oshirishi mumkin. 2018–2024-yillar statistikasi ushbu bog'liqlikni aniq tasdiqlaydi: 2018-yilda pul o'tkazmalari 7,6 milliard dollarni tashkil etib, YAIM o'sishi 5,6 foiz bo'lgan; 2022-yilda hajm 15,5 milliard dollarga yetganda YAIM o'sishi 6 foiz qayd etilgan, 2024-yilda esa 16,6 milliard dollargacha ko'tarilishi natijasida YAIM o'sishi 6,5 foizni tashkil etgan.

Inflyatsiya (0,297) va ishsizlik (3,413) koeffitsiyentlari ham ijobiy qiymatga ega bo'lsa-da, ularning statistik ahamiyati past. Bu holat kuzatuvlar sonining kamligi ($n = 7$) hamda omillar o'rtasidagi bog'liqlik bilan izohlanadi. Modelning aniqlovchanlik darajasi $R^2 = 0,24$ bo'lib, YAIM o'sishidagi o'zgarishlarning qariyb 24 foizini tushuntirib beradi [14]. Natijalar pul o'tkazmalarining qisqa muddatda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashini tasdiqlaydi, biroq ularni ehtiyotkorlik bilan talqin qilish lozim. Kelgusida panel ma'lumotlar yoki kengroq vaqt qatori asosida chuqurroq empirik tahlillar o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishida mehnat migratsiyasi va pul o'tkazmalari muhim tashqi moliyaviy manba sifatida qisqa muddatda iqtisodiy barqarorlikni qo'llab-quvvatlab, aholining ijtimoiy farovonligini oshirgan. Kelgusida ushbu manbalarning iqtisodiy o'sishga ta'siri yanada tizimli yondashuv orqali kuchaytirilishi mumkin. Mehnat migratsiyasi jarayonlari tajriba, bilim va kapital oqimini ta'minlab, mamlakatning inson resurslari salohiyatini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Pul o'tkazmalaridan samarali foydalanish strategik vazifa sifatida belgilanib, ularni ishlab chiqarish, investitsiya va innovatsion loyihalarga yo'naltirish orqali iqtisodiyotda yangi imkoniyatlar yaratish lozim. Moliyaviy xizmatlar infratuzilmasini kengaytirish, qaytgan migrantlarning mehnat bozoriga integratsiyasini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ta'lim va kasbiy malaka dasturlarini rivojlantirish orqali ularning iqtisodiyotdagi faolligini oshirish mumkin. Shu tariqa, mehnat migratsiyasi O'zbekiston iqtisodiyotida nafaqat tashqi moliyaviy oqim manbai, balki uzoq muddatli barqaror o'sish va innovatsion rivojlanishning muhim omili sifatida shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyuldagi "Mehnat migratsiyasi masalalarini tartibga solish va ushbu sohada davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3839-son qarori. <https://lex.uz/docs/-3811317>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 27.12.2022 yildagi SQ-669-IV-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6371092>
3. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099740408142422676/pdf/IDU-84dfd61b-e135-4242-a202-3728b2e8fa86.pdf>
4. <https://data.worldbank.org/indicator/BX.TRF.PWKR.CD.DT>
5. Adams, R. (2009). The determinants of international remittances in developing countries. World Development, 37(1), 93–103. <https://doi.org/10.1016/j.worlddev.2008.08.009>
6. Bollard, A., McKenzie, D., Morten, M., & Rapoport, H. (2011). Remittances and the brain drain revisited: The microdata show that more educated migrants remit more. World Bank Economic Review, 25(1), 132–156. <https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/e7f27fd8>
7. International Organization for Migration (IOM). (2022). World Migration Report 2022. Geneva: IOM. 480 p.
8. Rapoport, H., & Docquier, F. (2006). The economics of migrants' remittances. In Handbook of the Economics of Giving, Altruism and Reciprocity (Vol. 2, pp. 1135–1198).
9. Vohidov A. (2019). Mehnat migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari. Iqtisodiyot va ta'lim, (4), 45–51.
10. Qodirov B. (2020). Xorijiy pul o'tkazmalari va kambag'allikni qisqartirish muammolari. Moliya va bank ishi, (6) 22–29.
11. Ergashev D. (2021). Remitanslarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi, (3), 77–84.
12. Mavlanova S. (2022). Pul o'tkazmalari va ularning O'zbekiston YAIMidagi ulushi. Innovatsion iqtisodiyot jurnali, (2), 33–41.
13. Gujarati D. N., & Porter D. C. (2009). Basic Econometrics (5th ed.). McGraw-Hill/Irwin.
14. Adams R. H., & Cuecuecha A. (2013). The impact of remittances on investment and poverty in Ghana. World Development, 50, 24–40. <https://doi.org/10.1016/j.worlddev.2013.04.009>
15. <https://stat.uz/uz>
16. <https://ilostat.ilo.org/topics/labour-migration/>
17. <https://www.worldbank.org/en/topic/migration/overview>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

7-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
